



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 312 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	



Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abdurafova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodat Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</i>	
Talabalarning jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI



Maxliyo Turoпова Erkin qizi

Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi dotsent v.b.

ORCID:0009-0001-7092-874X

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammosi zamonaviy ta'lim paradigmalarini kontekstida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida ijodiy tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik shart-sharoitlar tizimi aniqlanib, ularning mazmuni, tuzilmasi va ta'lim jarayonidagi funksional ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion ta'lim, kreativ kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: The article examines the problem of developing creative thinking in future primary school teachers from scientific-theoretical and practical perspectives within the context of modern educational paradigms. In the course of the study, a system of pedagogical conditions influencing the formation of creative thinking is identified, and their content, structure, and functional significance in the educational process are substantiated.

Key words: creative thinking, future primary school teacher, pedagogical conditions, innovative education, creative competence, professional training.

Аннотация: В статье проблема развития творческого мышления будущих учителей начальных классов исследуется в научно-теоретическом и практическом аспектах в контексте современных образовательных парадигм. В процессе исследования определена система педагогических условий, влияющих на формирование творческого мышления, обоснованы их содержание, структура и функциональное значение в образовательном процессе.

Ключевые слова: творческое мышление, будущий учитель начальных классов, педагогические условия, инновационное образование, креативная компетентность, профессиональная подготовка.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy jamiyat boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidan faqatgina o'quv materialini yetkazib beruvchi emas, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaruvchi, mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq eta oladigan pedagog shaxsini talab etmoqda. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ijodiy tafakkur shaxsning yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini mujassamlashtiradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchining ijodiy tafakkuri o'quvchilarda bilimga qiziqish, erkin fikrlash va ijodkorlik sifatlarining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash va ilmiy asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi. Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkur tabiiy jarayon sifatida o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki maqsadli tashkil etilgan ta'lim jarayoni, mos pedagogik muhit va samarali metodik yondashuvlar orqali rivojlanadi. Shu sababli mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimli yondashuv asosida yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodiy tafakkur tushunchasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, J. Guilford ijodiy tafakkurni divergent tafakkur bilan bog'lab, uni muammoni bir nechta noodatiy yechimlar orqali hal qilish qobiliyati sifatida talqin etadi.

E. Torrance esa ijodiy tafakkurni shaxsning muammolarga sezgirligi, g'oyalar yaratish tezligi, moslashuvchanligi va originalligi bilan izohlaydi.

L.S. Vygotskiy ijodkorlikni shaxsning ijtimoiy tajribani qayta ishlashi natijasida yuzaga keladigan murakkab psixik jarayon sifatida baholab, ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun qulay muhit va pedagogik qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari Pedagog olimlardan N.D. Levitov, A.V. Xutorskoy, V.A. Kan-Kaliklar o'qituvchining ijodiy faoliyatini kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqadilar. Ularning fikricha, ijodiy tafakkur pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, innovatsion metodlarni qo'llash va ta'lim jarayonini loyihalashda namoyon bo'ladi ^[4].

O'zbekistonlik olimlar – R.X. Djuraev, N.A. Muslimov, M.Q. Qurbonov, Sh.S. Sharipovlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-ijodiy tayyorlash masalalari yoritilgan.

Xususan, N.A. Muslimov bo'lajak pedagoglarning kreativligini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlari, muammoli ta'lim va refleksiv yondashuvning samaradorligini asoslab bergan.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy yondashuvlar ijodiy tafakkur tushunchasining ko'p qirrali va murakkab pedagogik-psixologik hodisa ekanligini ko'rsatadi. J. Guilford va E. Torrance tomonidan ilgari surilgan divergent tafakkurga asoslangan qarashlar ijodiy fikrlashning individual-kognitiv jihatlarini chuqur ochib beradi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning bir xil pedagogik vaziyatga turlicha va noodatiy yechimlar topish qobiliyatini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz. Biroq, mazkur yondashuvlar ijodiy tafakkurning faqat intellektual tomoniga urg'u berib, uning ijtimoiy va pedagogik kontekst bilan bog'liqligini yetarlicha yoritmaydi ^[4].

L.S. Vygotskiyning ijodkorlikni ijtimoiy tajriba va ta'lim muhiti bilan uzviy bog'lab talqin etishi, bizningcha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasiga yanada kengroq nuqtayi nazardan yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, "yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi talabalarning mavjud imkoniyatlari bilan ularning potensial ijodiy salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berishi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirish maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitisiz samarali bo'lishi qiyin, degan xulosaga kelamiz.

Pedagog olimlar N.D. Levitov, A.V. Xutorskoy va V.A. Kan-Kaliklarning o'qituvchi ijodkorligini kasbiy kompetentlik bilan bog'lashga oid qarashlari tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkuri faqat shaxsiy sifat emas, balki kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan va rivojlanadigan muhim kompetensiya ekanligini ko'rsatadi. Biz bu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda, ijodiy tafakkur pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, darsni loyihalash va innovatsion metodlarni ongli tanlash jarayonida shakllanishini ta'kidlaymiz.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari esa mazkur muammoni milliy ta'lim tizimi sharoitida o'rganish imkonini beradi. Xususan, N.A. Muslimov tomonidan asoslab berilgan interfaol, muammoli va refleksiv yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin. Biroq, mavjud tadqiqotlarda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ijodiy tafakkurni rivojlantirishning aniq pedagogik shart-sharoitlarini tizimli ravishda belgilash masalasi yetarli darajada ochib berilmagan.

Shu asosda, ushbu tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni maxsus pedagogik shart-sharoitlar majmuasi asosida tashkil etilishi lozim, degan ilmiy pozitsiya ilgari suriladi. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanida keng qo'llanilayotgan tizimli, kompetensiyaviy hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish, ta'lim jarayonining ichki qonuniyatlari va mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI**1. Tadqiqotning metodologik asoslari**

Tadqiqotning metodologik poydevorini pedagogika va psixologiya fanlarida ishlab chiqilgan ijodiy tafakkur, shaxs rivoji va kasbiy tayyorgarlik konsepsiyalari tashkil etadi. Metodologik jihatdan tadqiqot quyidagi nazariy g'oyalarga tayandi:

- ijodiy tafakkurning shaxs faoliyati jarayonida shakllanishi haqidagi g'oyalar;



- kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda faol va interfaol ta'lim metodlarining ustuvorligi;
- bo'lajak o'qituvchi shaxsini kasbiy faoliyatga tayyorlashda refleksiya va mustaqil faoliyatning ahamiyati;
- pedagogik jarayonning tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi.

Tizimli yondashuv tadqiqot obyekti o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Bu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarning o'zaro aloqadorligi asosida tahlil qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotda ijodiy tafakkurni bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi-ning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etishga xizmat qildi. Mazkur yondashuv talabalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ularning kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa ta'lim jarayonida har bir talabani faol subyekt sifatida qarash, uning individual xususiyatlari, qiziqishlari va ijodiy salohiyatini inobatga olishni taqozo etdi.

2. Tadqiqot metodlari va ularning tavsifi

Tadqiqot jarayonida maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda nazariy, empirik va statistik metodlar majmuasidan foydalanildi.

2.1. Nazariy tadqiqot metodlari

Nazariy tadqiqot metodlari yordamida muammoning ilmiy-nazariy asoslari chuqur tahlil qilindi. Xususan:

- ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish orqali ijodiy tafakkur, kreativlik, pedagogik shart-sharoitlar tushunchalarining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi;
- taqqoslash va umumlashtirish metodlari yordamida mavjud yondashuvlar tahlil qilinib, mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqildi;
- modellashtirish metodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli konseptual darajada asoslandi.

Nazariy tahlil natijalari tadqiqotning keyingi empirik bosqichlarini rejalashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

2.2. Empirik tadqiqot metodlari

Empirik metodlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkur darajasini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini baholash maqsadida qo'llanildi.

- 1. Pedagogik kuzatish.** Pedagogik kuzatish metodi ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va tashabbuskorligini o'rganish imkonini berdi. Kuzatishlar tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lib, mashg'ulotlar jarayonida talabalar faoliyatidagi o'zgarishlar qayd etildi [5].
- 2. Suhbat va anketa so'rovlari.** Suhbat metodi talabalarning ijodiy faoliyatga bo'lgan munosabati, kasbiy qiziqishlari va o'z-o'zini baholash darajasini aniqlashga xizmat qildi. Anketa so'rovlari esa keng qamrovli ma'lumot to'plash imkonini berib, olingan natijalar statistik tahlil uchun asos bo'ldi.
- 3. Diagnostik testlar.** Ijodiy tafakkur darajasini aniqlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan diagnostik testlardan foydalanildi. Testlar talabalarning:
 - muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;
 - noodatiy yechimlar topish;
 - kreativ fikrlar ilgari surish qobiliyatlarini aniqlashga qaratildi.

3. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish

Pedagogik tajriba-sinov ishlari oliy pedagogik ta'lim muassasasining "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi:

3.1. Aniqlovchi bosqich

Ushbu bosqichda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkur darajasining dastlabki holati aniqlandi. Diagnostik metodlar yordamida mavjud muammolar, talabalarning ijodiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi o'rganildi.



3.2. Shakllantiruvchi bosqich

Shakllantiruvchi bosqichda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlar amaliyotga joriy etildi. Mashg'ulotlar innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etildi.

3.3. Nazorat bosqichi

Nazorat bosqichida tajriba-sinov ishlari natijalari yakuniy diagnostika orqali baholandi. Olingan natijalar aniqlovchi bosqich ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi.

4. Matematik-statistik tahlil metodlari

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar foiz ko'rsatkichlari, dinamik o'sish va taqqoslama tahlil asosida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy va empirik izlanishlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni bevosita pedagogik shart-sharoitlarning maqsadli va tizimli tashkil etilishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni tasdiqladiki, ijodiy tafakkur tasodifiy jarayon emas, balki maxsus tashkil etilgan ta'lim muhiti, innovatsion metod va texnologiyalar, kasbiy yo'naltirilgan topshiriqlar hamda refleksiv faoliyat orqali bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan murakkab pedagogik hodisadir.

Pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

1. Ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirish natijalari

Tadqiqot jarayonida ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Tajriba guruhi mashg'ulotlarida talabalarga erkin fikrlash, o'z nuqtayi nazarini ochiq bayon etish va muqobil yechimlarni ilgari surish imkoniyatlari yaratildi. Bunday muhitda talabalarining tashabbuskorligi, mustaqil qaror qabul qilishga bo'lgan intilishi va kreativ yondashuvi bosqichma-bosqich rivojlandi.

Aniqlovchi bosqichda talabalarining aksariyatida ijodiy tafakkur elementlari sust rivojlanganligi, fikrlash jarayonida ko'proq andozaviy yondashuv ustunligi kuzatilgan bo'lsa, shakllantiruvchi bosqich davomida ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhiti ta'sirida bu holat sezilarli darajada o'zgardi. Talabalar o'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok eta boshladi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishda mustaqil va noodatiy fikrlar ilgari surish holatlari ko'paydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijodiy muhit mavjud bo'lgan sharoitda talabalarda:

- fikrlash moslashuvchanligi;
- muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish;
- yangicha g'oyalar yaratish qobiliyatlari rivojlanadi.

Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida ijodkorlikni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi

Tadqiqot natijalari innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Tajriba guruhida muammoli ta'lim, loyiha metodi, keys-stadi, interfaol mashg'ulotlar va raqamli ta'lim platformalaridan tizimli foydalanildi [2].

Muammoli ta'lim elementlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarining muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirdi. Loyiha metodi orqali talabalar pedagogik jarayonga oid muammolarni amaliy jihatdan o'rganib, kreativ yechimlar ishlab chiqishga yo'naltirildi. Keys-stadi metodi esa real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarining kasbiy tafakkurini rivojlantirdi.

Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlarda:

- talabalar faolligi oshdi;
- bilimlar chuqurroq o'zlashtirildi;
- nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy bog'landi.



Natijada tajriba guruhi talabalarida ijodiy tafakkurning o'rta va yuqori darajalariga o'tish holatlari sezilarli ko'paydi. Nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodlari ustuvor bo'lgani sababli ijodiy tafakkur rivoji nisbatan sust kechdi.

3. Kasbiy yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar tizimini joriy etish natijalari

Tadqiqot jarayonida kasbiy yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar tizimining samaradorligi alohida o'rganildi. Boshlang'ich ta'limga oid real pedagogik vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qildi.

Mazkur topshiriqlar talabalarni:

- pedagogik muammolarni tahlil qilishga;
- vaziyatga mos innovatsion yechimlar ishlab chiqishga;
- o'z kasbiy qarorlarini asoslashga undadi.

Tajriba guruhi talabalarining aksariyati topshiriqlarni bajarish jarayonida ijodiy yondashuv namoyon etdi, muammolarga bir nechta muqobil yechimlar taklif qildi. Bu esa ularning kasbiy tafakkurining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, kasbiy yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar talabalarda:

- pedagogik fikrlashning mustaqilligi;
- kasbiy refleksiya;
- ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Refleksiv faoliyatni tashkil etish natijalari

Tadqiqot natijalari refleksiv faoliyatni tashkil etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqladi. Refleksiya jarayonida talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Refleksiv mashg'ulotlar davomida talabalar:

- o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqladi;
- kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgiladi;
- ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni anglab yetdi.

Tajriba guruhi talabalarida refleksiv faoliyat natijasida o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Bu esa ijodiy tafakkurning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim psixologik-pedagogik omil sifatida namoyon bo'ldi.

5. Tajriba-sinov ishlarining umumiy natijalari

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi talabalarida ijodiy tafakkurning yuqori darajasi sezilarli darajada oshdi. O'rta darajadagi ko'rsatkichlar barqarorlashdi, past darajadagi ko'rsatkichlar esa keskin kamaydi.

Nazorat guruhida esa ijodiy tafakkur rivoji mavjud bo'lsa-da, bu o'sish tajriba guruhi bilan solishtirganda ancha past bo'ldi. Bu holat taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuasining samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Umumlashtirilgan xulosa

Tadqiqot natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi asosida samarali kechishini ilmiy jihatdan asoslab berdi:

- ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhiti;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar;
- kasbiy yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar;
- refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish.

Mazkur natijalar oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki puxta rejalashtirilgan pedagogik shart-sharoitlar tizimiga asoslanishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlangan shart-sharoitlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning kompleks qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Mazkur natijalar avvalgi ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalarni to'ldiradi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirish ta'lim jarayonida maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Ijodiy yo'naltirilgan ta'lim muhiti, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kasbiy yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlar va refleksiv faoliyat uyg'unligi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur maqola natijalari oliy pedagogik ta'lim tizimida o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirishda hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini modernizatsiyalashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov A. A., Begimqulov U. Sh. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Jo'raev R. X. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim jarayoni samaradorligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2020.
4. Karimova Z. K. Ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Ta'lim va innovatsiya. – 2022.
5. Turopova M. E. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari ijodiy fikrlashini shakllantirishning pedagogik asoslari // Pedagogik mahorat. – 2025.
6. Turopova M. E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.